
O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan Rishton tumani hokimi S. Solievning TABRIGI

Aziz tumandoshlar! Avvalambor, barchangizni O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 31 yilligi bilan chin qalbidan tabriklayman. O'tgan yillar davomida O'zbekiston nomi jaranglagan har bir tadbirda Davlat bayrog'i baland ko'tarilib, vatandoshlarimiz qalbidan shu yurt, shu Vatan farzandi ekanidan iftixor hissini oshirib kelmoqda. Davlat bayrog'i fuqarolarda o'z ona Vatanidan g'ururlanish tuyg'usini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini e'tiborga olgan holda, bayrog'imiz qabul qilingan kunni bayram sifatida mamlakatning barcha hududlarida keng nishonlash belgilab olindi. Davlatimiz rahbari sharafiga boshqa davlatlarda yurtimiz bayrog'i ko'tarilganda, xorij safarlarida, o'zga davlatlar hududida O'zbekiston bayrog'ini ko'rganimizda, nufuzli xalqaro sport anjumanlarida mamlakatimiz bayrog'i hilpiraganida, vatan hissini yurakdan tuygan har bir inson borki, yurt bayrog'ini muqaddas bilib, uning hurmat va sharafini chin qalbdan e'zozlaydi. Zero, milliy bayrog'imiz - mamlakatimiz suverenitetining oliy ramzi bo'lib, xalqaro musobaqalarda O'zbekiston Respublikasining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday lahzalarda qalbimizda shu bayroqqa, ona Vatanimizga bo'lgan cheksiz hurmat, chuqur daxldorlik hissi jo'sh o'radi. Dunyoda millatlar ko'p, xalqlar va davlalar ko'p, lekin O'zbekiston bitta. Uning bayrog'i ham yagona. Ana shu bayroq ostida davlatimiz rahbari rahnamoligida xalqimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan hayot barpo etish yo'lida ezgu maqsadlar sari olg'a boraveramiz. Aziz tumandoshlar! O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan barchangizni chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

2022-11-18 10:26:04